Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim amaliyotida mantiqiy fikrlash darajasini aniqlash asosan test topshiriqlari yoki akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari orqali baholanmoqda. Bunday yondashuvlar mantiqiy fikrlashning kognitiv, analitik, argumentatsion va refleksiv jihatlarini to'liq qamrab olmasligi sababli uning haqiqiy shakllanganlik darajasini baholash imkoniyatini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashning ilmiy asoslangan diagnostik modelini ishlab chiqish hamda uning mezonlari va indikatorlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Biz ushbu tahlillar orqali bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga qaratilgan diagnostik modelning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va uning amaliy mexanizmlarini asoslashga harakat qilamiz.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi shaxsning ma'lumotlarni tahlil qilish, voqea va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, fikrlarni tizimlashtirish, dalillar asosida xulosa chiqarish hamda muammoli vaziyatlarga nisbatan ratsional yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi. U faqat nazariy bilimlar yig'indisidan iborat bo'lmay, balki intellektual faoliyatni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va tajribalarning integratsiyalashgan tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika nuqtai nazaridan mantiqiy fikrlash kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchining o'quv materiallarini tahlil qilishi, ta'lim mazmunini tizimlashtirishi, turli pedagogik vaziyatlarga nisbatan maqbul qaror qabul qilishi va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi bilan uzviy bog'liqdir.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasining tuzilmasini tahlil qilish uning bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topganligini ko'rsatadi:

- *Birinchi komponent* - kognitiv komponent bo'lib, u mantiqiy tushunchalar, qoidalar va operatsiyalar haqidagi bilimlarni qamrab oladi.
- *Ikkinchi komponent* - analitik komponent bo'lib, ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.
- *Uchinchi komponent* - argumentatsion komponent sifatida namoyon bo'lib, shaxsning o'z fikrini dalillar orqali asoslash va himoya qilish ko'nikmalarini ifodalaydi.
- *To'rtinchi komponent* esa refleksiv komponent bo'lib, fikrlash jarayonini baholash, xatolarni aniqlash va o'z intellektual faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Demak, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, kognitiv, analitik, argumentatsion va refleksiv tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi murakkab integrativ tuzilma hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash muammosi turli fan sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, uning shakllanishi va baholani-shiga doir yondashuvlar vaqt o'tishi bilan takomillashib borgan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur masalaga nisbatan kognitiv, ijtimoiy-konstruktivistik, kompetensiyaviy va diagnostik yondashuvlar shakllangan.

Kognitiv yondashuv vakillaridan biri bo'lgan J. Piaje inson tafakkurining rivojlanishini bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon sifatida talqin qilib, mantiqiy operatsiyalar shaxs intellektual kamolotining muhim ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tahlil qilish, tasniflash va umumlashtirish kabi operatsiyalar mantiqiy fikrlash darajasini aniqlashda asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv doirasida L. S. Vygotskiy tafakkur rivojlanishining ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, insonning intellektual faoliyati ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois mantiqiy fikrlashni baholashda faqat individual natijalar emas, balki shaxsning muammoli vaziyatlardagi faoliyati va muloqot jarayoni ham hisobga olinishi lozim.

Ta'lim sohasida mantiqiy fikrlashni baholash masalasi B. Blum taksonomiyasi doirasida ham keng yoritilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilish jarayoni oddiy eslab qolishdan tortib tahlil qilish, baholash va yaratish kabi yuqori darajali kognitiv operatsiyalargacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Ko'rinib turibdiki, mantiqiy fikrlash darajasini baholashda tahlil, sintez va baholash kabi yuqori kognitiv ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mantiqiy fikrlash ko'p hollarda tanqidiy fikrlash bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Xususan, R. Ennis tanqidiy fikrlashni qaror qabul qilish va fikrni asoslash jarayonida dalillarni baholash

qobiliyati sifatida izohlaydi. R. Pol va L. Elder esa mantiqiy fikrlashni intellektual standartlar - aniqlik, izchillik, mantiqiylik va dalillanganlik orqali baholash mumkinligini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagi olimlar tadqiqotlari va yondashuvlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mantiqiy fikrlashni baholashga doir nazariy asoslar yetarlicha shakllangan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi nuqtai nazaridan mazkur jarayonni kompleks baholashga qaratilgan yagona diagnostik model haligacha to'liq shakllanmasdan qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, mantiqiy fikrlashni baholash metodologiyasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, ilk tadqiqotlarda asosiy e'tibor fikrlashning kognitiv mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik mazkur jarayon shaxsning faoliyati, ijtimoiy muhiti va kasbiy kompetentligi bilan bog'liq holda tahlil qilina boshlandi. Gap shundaki, mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashning zamonaviy modelini ishlab chiqish mazkur sohada shakllangan ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish va ularning imkoniyatlari hamda cheklovlarini aniqlashni taqozo etadi.

XXI asrda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, global axborot makoni va tarmoqli kommunikatsiyalar rivojlanishi natijasida fikrlash faoliyatining mazmuni ham sezilarli darajada o'zgardi. Bugungi kunda shaxsdan ma'lumotni eslab qolish yoki tahlil qilishning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Axborot manbalarining ishonchligini baholash, turli nuqtai nazarlar va qarashlarni taqqoslash, dalillarni tekshirish, kognitiv xatolarni aniqlash hamda mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani bejiz emas.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash metodologiyasining yangi bosqichi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllana boshladi. Bu davrda tadqiqotchilar diqqati fikrlashning alohida intellektual operatsiyalarini aniqlashdan uning tuzilmasi, funksional xususiyatlari va amaliy samaradorligini kompleks baholashga ko'chdi. Ana shu jarayonda amerikalik olim Piter Fachionening ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. U 1988–1990-yillarda AQShda amalga oshirilgan "Delphi" loyihasi rahbarlik qilib, tanqidiy fikrlash sohasida faoliyat yuritayotgan qirqdan ortiq yetakchi ekspertlarning xulosalarini umumlashirdi. Tadqiqot natijasida interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish fikrlash kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida asoslandi. Fachionening ilmiy xizmati shundaki, u fikrlash jarayonini kognitiv va metakognitiv elementlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida talqin qildi hamda mazkur komponentlarni diagnostik baholash imkonini beruvchi konseptual asoslarni ishlab chiqdi.

Zamonaviy fikrlash diagnostikasining rivojiga sezilarli hissa qo'shgan olimlardan yana biri amerikalik psixolog Diana Halperndir. Uning tadqiqotlari mantiqiy va tanqidiy fikrlashning kundalik hayot, kasbiy faoliyat va qaror qabul qilish jarayonlaridagi namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga bag'ishlangan. Olim fikrlash sifatini baholashda dalillarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni solishtirish, ehtimoliy xatolarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Halpern konsepsiyasi raqamli axborot muhiti kengayib borayotgan hozirgi sharoitda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, zamonaviy inson oldida turgan asosiy vazifalardan biri axborot oqimini qabul qilishdan ko'ra uning ishonchligi, mantiqiyliigi va amaliy qimmatini baholash bilan bog'liqdir.

Fachione va Halpern tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar mantiqiy fikrlash diagnostikasini yangi bosqichga olib chiqqan ilmiy konsepsiyalar qatoriga kiradi. Fachione modeli fikrlashning ichki tuzilmasi va uning komponentlarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, Halpern konsepsiyasi mazkur qobiliyatlarining amaliy vaziyatlarda namoyon bo'lish samaradorligini o'lchashga ustuvor ahamiyat beradi. Ikki yondashuvning o'zaro uyg'unligi fikrlash kompetensiyasini ham jarayon, ham natija nuqtai nazaridan baholash imkoniyatini yaratadi. Ularning nazariy g'oyalari kelgusi tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv va pedagogik diagnostika tamoyillari bilan integratsiya qilingan holda qo'llanildi.

Kompetensiyaviy ta'lim metodologiyasining rivojlanishi mazkur masalaga yanada kengroq yondashish imkonini berdi. Pedagogika sohasidagi yirik olimlar A.V. Xutorskoy va I.A. Zimnyaya ishlarida kompetensiya bilim, amaliy faoliyat tajribasi va shaxsiy munosabatning integral birligi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv mantiqiy fikrlashni baholashda faqat intellektual operatsiyalar bilan cheklanmaydi, balki ularning amaliy pedagogik faoliyatda namoyon bo'lish darajasini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va PISA (O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini xalqaro baholash dasturi) doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar fikrlash kompetensiyalarini baholashning yangi bosqichini boshlab berdi. Ularda tahlil qilish, dalillarni baholash, axborot manbalarini saralash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari kompleks baholanmoqda. Biroq mazkur yondashuvlar umumiy ta'lim natijalarini baholashga yo'naltirilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi.



Bugungi kungacha mantiqiy fikrlashni baholash sohasida boy nazariy va amaliy tajriba to'plangan bo'lsa-da, mavjud diagnostik modellarning aksariyati yo kognitiv ko'nikmalarga, yo tanqidiy fikrlashning alohida jihatlariga yo'naltirilmoqda. Natijada pedagogik oliy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini kognitiv, analitik, argumentatsion va reflektiv komponentlar birligida baholash imkonini beruvchi kompleks diagnostik tizimga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Shu sababli mazkur tadqiqot orqali kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik diagnostika nazariyasi va zamonaviy baholash texnologiyalarining integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga qaratilgan diagnostik model ishlab chiqishga harakat qildik. Mazkur model fikrlash jarayonining tarkibiy qismlarini aniqlash, ularning shakllanganlik darajasini baholash va natijalar asosida rivojlantiruvchi pedagogik qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Metodologik tahlil natijalariga ko'ra, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi ko'p o'lchovli tuzilma ekanligini ko'rish mumkin. Shuning uchun uni birgina test yoki alohida kognitiv operatsiya orqali baholash yetarli emas. Tadqiqot doirasida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash uchun to'rt o'lchovli mezonlar tizimi taklif etildi: kognitiv, analitik, argumentatsion va reflektiv mezonlar.

1-jadval: **Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlari**

Mezon	Indikatorlar	Ko'rsatkichlar
Kognitiv	Mantiqiy tushunchalarni bilish	Tushunchalarni to'g'ri izohlay olishi
	Mantiqiy operatsiyalarni qo'llash	Tahlil, taqqoslash, umumlashtirishni bajarishi
Analitik	Sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash	Muammoni tahlil qilish darajasi
	Ma'lumotlarni tizimlashtirish	Xulosa chiqarish sifati
Argumentatsion	Fikrni asoslash	Dalillardan foydalanish darajasi
	Muhokama olib borish	Mantiqiy izchillik
Refleksiv	O'z fikrini baholash	Xatolarni aniqlay olishi
	Intellektual o'zgarishlarni anglash	O'z faoliyatini tahlil qilishi

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan diagnostik model mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashning maqsad, mazmun, jarayon va natijalarini o'zaro bog'lovchi yaxlit pedagogik tizim sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, u to'rtta o'zaro bog'liq funksional blokdan tashkil topadi:

- Maqsadli blok** - mantiqiy fikrlash kompetensiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash, monitoring qilish va rivojlantirish maqsadini ifodalaydi.
- Mazmuniy blok** - mantiqiy fikrlashning kognitiv, analitik, argumentatsion va reflektiv tarkibiy qismlarini qamrab oladi.
- Texnologik-diaagnostik blok** - baholash mezonlari, indikatorlar, testlar, keyslar, vaziyatli topshiriqlar, raqamli baholash vositalari va monitoring mexanizmlarini o'z ichiga oladi.
- Natijaviy blok** - mantiqiy fikrlash kompetensiyasining yuqori, o'rta va boshlang'ich darajalarini aniqlash hamda rivojlanish dinamikasini baholashga xizmat qiladi.

Modelning asosiy afzalligi shundaki, u baholashni kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qiladi.

Zamonaviy pedagogik diagnostika tajribasi ko'rsatishicha, yagona baholash vositasi orqali fikrlash kompetensiyasining barcha jihatlarini qamrab olish imkoniyati cheklangan. Shu sababli tadqiqot doirasida testlar, keys-stadi texnologiyasi, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlardan iborat kompleks diagnostik vositalar majmuasi taklif etildi.

Test topshiriqlari mantiqiy fikrlashning kognitiv tarkibiy qismlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali tushunchalarni anglash, mantiqiy operatsiyalarni qo'llash, munosabatlarni aniqlash va xulosa chiqarish ko'nikmalari o'rganiladi. Ayniqsa, ko'p bosqichli mantiqiy zanjirga asoslangan testlar talabning fikrlash jarayoni haqida kengroq ma'lumot olish imkonini beradi.

Keys texnologiyasi esa mantiqiy fikrlashning amaliy jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Keyslar orqali talabalarining pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoni aniqlash, muqobil qarorlarni taqqoslash va eng maqbul yechimni asoslash qobiliyatlari baholanadi. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fikrlashini aniqlashda yuqori diagnostik qiymatga ega.

Muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlar fikrlashning analitik hamda argumentatsion jihatlarini baholash imkonini yaratadi. Bunday topshiriqlarda talabalar ma'lum pedagogik muammo yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bildirishi, uni dalillar bilan asoslashi va turli fikrlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlarni ko'rsatishi talab etiladi.

Shu jihatdan interaktiv topshiriqlar mantiqiy fikrlashning real faoliyatda namoyon bo'lish darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi diagnostik jarayonga yangi imkoniyatlar olib kirmoqda. Xususan, elektron test platformalari, onlayn keyslar, virtual muhokama maydonlari va raqamli portfoliolar baholash natijalarini tezkor tahlil qilish, dinamik monitoring yuritish hamda har bir talabning individual rivojlanish trayektoriyasini kuzatish imkonini yaratadi.

Taklif etilayotgan diagnostik modelni joriy etish muayyan ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich - boshlang'ich diagnostika. Ushbu bosqichda talabalarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasining dastlabki holati aniqlanadi. Kognitiv, analitik, argumentatsion va refleksiv ko'rsatkichlar bo'yicha olingan natijalar keyingi ishlarni rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich - kompleks baholash. Bu bosqichda testlar, keyslar va interaktiv topshiriqlar orqali mantiqiy fikrlash kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlari o'rganiladi. Turli diagnostik vositalarning bir vaqtning o'zida qo'llanilishi natijalarning obyektivligini oshiradi hamda kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Uchinchi bosqich - natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish. Olingan ma'lumotlar mezonlar va indikatorlar asosida qayta ishlanadi. Natijalarning statistik va sifat tahlili amalga oshiriladi, talabalar yuqori, o'rta va boshlang'ich darajalar bo'yicha guruhlanadi.

To'rtinchi bosqich - pedagogik korreksiya va monitoring. Bu bosqichda diagnostik ma'lumotlar asosida rivojlantiruvchi topshiriqlar, individual tavsiyalar va maqsadli pedagogik ta'sir choralari ishlab chiqiladi. Keyinchalik qayta diagnostika orqali rivojlanish dinamikasi aniqlanadi va monitoring natijalari baholanadi.

Shunday yondashuv baholash jarayonini bir martalik nazorat tadbiri darajasidan uzluksiz rivojlantiruvchi mexanizm darajasiga olib chiqadi.

Aytish kerakki, taklif etilgan diagnostik modelning amaliy ahamiyati uning bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini kompleks baholash imkoniyatini ta'minlashi bilan belgilanadi. Model mantiqiy fikrlashning turli tarkibiy qismlarini bir vaqtning o'zida o'rganishga xizmat qilib, faqat bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmay, talabning tahliliy, argumentatsion va refleksiv qobiliyatlari haqida ham ma'lumot olish imkonini yaratadi.

Mazkur modeldan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida, malaka oshirish tizimida hamda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin. Ayniqsa, ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar samaradorligini baholashda yuqori amaliy qiymat kasb etadi.

Modelning yana bir muhim xususiyati uni raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiya qilish imkoniyati bilan bog'liqligidir. Bu holat baholash jarayonini avtomatlashtirish, natijalarni tezkor qayta ishlash va uzoq muddatli monitoringni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan diagnostik yondashuvning samaradorligi uning to'rtta mezon va bir nechta indikatorlar asosida qurilganligi bilan izohlanadi. Bunday tuzilma mantiqiy fikrlash kompetensiyasining shakllanganlik darajasini har tomonlama baholash imkonini yaratib, diagnostik natijalarning ishonchligi va validligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash masalasi pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ilmiy muammolardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashib borishi, raqamli ta'lim muhitining kengayishi hamda pedagog kadrlarga qo'yilayotgan yangi talablar mazkur kompetensiyani aniq baholashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlillar va konseptual umumlashtirishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

*Birinchi*dan, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim integrativ sifatlardan biri hisoblanadi. U kognitiv bilimlar bilan bir qatorda tahliliy fikrlash, dalillash, pedagogik qaror qabul qilish va refleksiv baholash qobiliyatlarining o'zaro uyg'unligi orqali namoyon bo'ladi.

*Ikkinchi*dan, mantiqiy fikrlashni baholash sohasida shakllangan klassik va zamonaviy yondashuvlar tahlili mazkur jarayonning bosqichma-bosqich takomillashib borganligini ko'rsatdi. Psixologik yondashuvlar fikrlashning kognitiv mexanizmlarini ochib bergan bo'lsa, kompetensiyaviy va diagnostik yondashuvlar uning amaliy faoliyatda namoyon bo'lish xususiyatlarini baholash imkoniyatlarini kengaytirdi.



Uchinchidan, raqamli ta'lim muhiti, axborot oqimining keskin ortishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi mantiqiy fikrlash kompetensiyasi mazmunini yanada boyitmoqda. Bu holat fikrlashni baholashda axborotni saralash, dalillarni tekshirish, manbalar ishonchligini aniqlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, tadqiqot jarayonida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashning kognitiv, analitik, argumentatsion va refleksiv mezonlarga asoslangan diagnostik model loyihasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan model loyihasi mazkur kompetensiyaning tarkibiy qismlarini tizimli baholash hamda uning shakllanganlik darajasini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Beshinchidan, testlar, keyslar, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlardan tashkil topgan kompleks diagnostik vositalar tizimi mantiqiy fikrlash kompetensiyasining turli jihatlarini har tomonlama o'rganishga xizmat qilishi asoslandi. Bu esa diagnostik natijalarning obyektivligi va ishonchligini oshirish uchun uslubiy zamin yaratadi.

Oltinchidan, taklif etilgan diagnostik model pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini baholash, individual rivojlanish trayektoriyalarini belgilash hamda ta'lim jarayoni samaradorligini monitoring qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash sohasidagi izlanishlar kelgusida yanada kengayishini ko'rsatadi. Jumladan, raqamli diagnostika platformalari asosida avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali fikrlash jarayonini tahlil qilish, mantiqiy fikrlash kompetensiyasining sohaviy va fanlararo indikatorlarini aniqlash hamda mazkur kompetensiyaning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sirini empirik jihatdan o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari sifatida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, taklif etilgan diagnostik model bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashning nazariy va metodik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilib, pedagogik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tizimini boyitish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. - New York: David McKay Company, 1956. - 207 p.
2. Ennis R.H. Critical Thinking. - Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. - 336 p.
3. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. - Millbrae, CA: The California Academic Press, 1990. - 112 p.
4. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. - 5th ed. - New York: Psychology Press, 2014. - 624 p.
5. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. - 3rd ed. - Boston: Pearson Education, 2014. - 348 p.
6. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. - London: H.K. Lewis & Co. Ltd., 1984. - 251 p.
7. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 2001. - 182 p.
8. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. - New York: George Braziller, 1968. - 289 p.
9. Vygotskiy L.S. Мышление и речь. - Moskva: Labirint, 1999. - 352 s.
10. Leontev A.N. Deyatel'nost. Soznanie. Lichnost. - Moskva: Politizdat, 1975. - 304 s.
11. Zimnyaya I.A. Klyuchevyye kompetentsii - novaya paradigma rezultata obrazovaniya // Vysshee obrazovanie segodnya. - 2003. - № 5. - S. 34-42.
12. Xutorskoy A.V. Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. - 2003. - № 2. - S. 58-64.
13. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006. - 159 b.
14. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 416 b.
15. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. - Paris: OECD Publishing, 2023. - 368 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.